



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

“ALPOMISH” DOSTONINI FANLARARO YONDASHUV ASOSIDA O‘RGANISHNING ILMIIY-METODIK AHAMIYATI

Nurboyev Shirinbek

Jizzax davlat pedgogika universiteti Boshlang’ich
ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası v.b dotsenti

Аннотация

Mazkur maqolada “Alpomish” dostonini fanlararo yondashuv asosida o‘rganishning ilmiy-metodik ahamiyati yoritiladi. Dostonda uchraydigan toponimlar, etnonimlar, zoonimlar, antroponimlar hamda evfemik birliklar tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy o‘zlik, lingvistik tafakkur va ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, doston matnini adabiyot, tarix, toponimika, etnografiya, zoologiya, tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari bilan bog‘liq holda o‘rganish orqali o‘quvchilarning ilmiy tushunchalarini kengaytirish imkoniyatlari asoslanadi. Maqolada “Alpomish” dostoni nafaqat badiiy-estetik manba, balki yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, milliy qadriyatlarga sodiq va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim didaktik vosita ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: “Alpomish” dostoni, fanlararo yondashuv, toponim, etnonim, zoonim, antroponim, evfemizm, ilmiy tafakkur, milliy qadriyat, adabiy ta’lim, ma’naviy tarbiya.

Аннотация

В данной статье рассматривается научно-методическое значение изучения эпоса «Алпомыш» на основе междисциплинарного подхода. Анализируются топонимы, этнонимы, зоонимы, антропонимы и эвфемистические единицы,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

встречающиеся в тексте эпоса, раскрывается их роль в формировании у учащихся исторической памяти, национального самосознания, лингвистического мышления и духовно-нравственного мировоззрения. Особое внимание уделяется возможностям изучения эпоса во взаимосвязи с литературой, историей, топонимикой, этнографией, зоологией, языкознанием и культурологией. В статье обосновывается, что эпос «Алпомыш» является не только художественно-эстетическим источником, но и важным дидактическим средством воспитания молодого поколения в духе высокой духовности, уважения к национальным ценностям и самостоятельного мышления.

Ключевые слова: эпос «Алпомыш», междисциплинарный подход, топоним, этноним, зооним, антропоним, эвфемизм, научное мышление, национальные ценности, литературное образование, духовное воспитание.

Abstract

This article explores the scientific and methodological significance of studying the epic “Alpomish” through an interdisciplinary approach. The study analyzes toponyms, ethnonyms, zoonyms, anthroponyms, and euphemistic units found in the epic and reveals their role in developing students’ historical memory, national identity, linguistic thinking, and spiritual-moral worldview. The article also substantiates the educational potential of studying the epic in connection with literature, history, toponymy, ethnography, zoology, linguistics, and cultural studies. It is emphasized that “Alpomish” is not only a literary and aesthetic source, but also an important didactic tool for educating young people as spiritually mature, nationally conscious, and independently thinking individuals.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Keywords: “Alpomish” epic, interdisciplinary approach, toponym, ethnonym, zoonym, anthroponym, euphemism, scientific thinking, national values, literary education, spiritual education.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yosh avlodni nafaqat bilimli, balki keng dunyoqarashga ega, milliy qadriyatlarni anglaydigan, tarixiy xotirasi mustahkam va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, adabiy ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalarini chuqur o‘rganish o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish hamda ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan o‘zbek xalqining bebaho ma’naviy merosi hisoblangan “Alpomish” dostoni o‘zining badiiy-estetik, tarixiy, lingvistik, etnografik va tarbiyaviy imkoniyatlari bilan alohida o‘rin tutadi.

“Alpomish” dostoni xalqimizning qadimiy hayot tarzi, urf-odatlari, orzu-intilishlari, qahramonlik, sadoqat, vatanparvarlik, mardlik, do‘stlik va oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi yirik epik asardir. Mazkur dostonni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar faqat badiiy matn mazmuni bilan tanishib qolmay, balki unda aks etgan tarixiy joy nomlari, xalq va urug‘-elat nomlari, hayvon va parranda nomlari, shaxs nomlari hamda milliy madaniyatga xos evfemik birliklar orqali turli fanlarga oid dastlabki ilmiy tushunchalarni ham egallaydilar. Bu esa dostonni fanlararo yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Dostonda uchraydigan Amu, Oyko‘l, Arpali ko‘li, Ko‘kqamish ko‘li, Bobotog‘, Boysun, Samarqand, Toshkent, Makka Muazzam, Madina kabi toponimik birliklar o‘quvchilarga tarix, geografiya va toponimika fanlari bilan bog‘liq tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek, qalmoq, qozoq, qo‘ng‘irot eli,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Boysun-Qo'ng'iro't elati kabi etnonimlar orqali o'quvchilar xalq, elat, urug', millat tushunchalarini anglaydilar hamda turli xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy munosabatlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar .

Doston matnida uchraydigan Boychibor, Torlonbiya, Ko'kdo'nan, Boyqadam, Iziquti, Semurg', Lochin, Qarchig'ay kabi zoonimlar esa adabiyot bilan bir qatorda zoologiya, xalqona tasavvur va ramziy obrazlar haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Ayniqsa, ot va it obrazlari xalq og'zaki ijodida sadoqat, jasorat, hushyorlik va vafodorlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu holat o'quvchilarning tabiat, hayvonot olami va insoniy fazilatlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashiga yordam beradi.

Bundan tashqari, dostondagi antroponimlar, ya'ni shaxs nomlari ham lingvistik va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Alpomish, Barchin, Qaldirg'och, Boysari, Boybo'ri, Qorajon kabi obrazlar nomi orqali o'quvchilar xalqning nom qo'yish an'analari, epik qahramonlarga xos fazilatlar va milliy tafakkur xususiyatlari bilan tanishadilar. Doston matnida qo'llangan xonim, to'ram, begim, chokasta shunqorim, elda zo'raborim kabi evfemik murojaatlar esa o'zbek xalqining andisha, hurmat, uyatchanlik, oilaviy odob va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim til birliklari sifatida e'tiborga loyiqdir.

Shu nuqtayi nazardan, "Alpomish" dostonini faqat adabiy asar sifatida emas, balki tarix, etnografiya, toponimika, zoologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va qadriyatshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Fanlararo yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning matnni chuqur tahlil qilish, obrazlar va tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'ra bilish, milliy merosga ongli munosabat bildirish hamda ilmiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada "Alpomish" dostonini fanlararo yondashuv asosida o'rganishning ilmiy-metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda dostondagi toponim, etnonim, zoonim, antroponim va evfemik birliklarning o'quvchilar



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni, adabiy ta‘lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikdan foydalanishning didaktik ahamiyati hamda mazkur yondashuv orqali yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirish masalalari yoritiladi.

Dastlab toponika, etnonimika, zoologiya fanlari bilan bog‘liq jihatlariga, so‘ngra lingvistika, madaniyatshunoslik va boshia fanlar bilan bog‘liq o‘rinlarni qisqacha kuzatamiz. “Alpomish” dostonini mutolaa qilgan har bir o‘quvchi eposda uchraydigan joy nomlari bilan yaqindan tanishadilar. Xususan, Amu, Oyko‘l (Oynali ko‘li, Oyna ko‘l) Arpali ko‘li, Ko‘kqamish ko‘li, Bobir ko‘li , Olotog‘, Asqar tog‘, Shakaman tog‘i, Zil tog‘i, Bobotog‘, Qog‘oton tog‘i, Toychaxon mamlakati, Chilbir cho‘li, Turkmaniston, Shahrison, Chorsu, Registon, Astraxon, Chin-Mochin, G‘azira, Toshkent, Makka Muazzam, Shahimardon, Samarqand, Madina, Mashriq, Boysun toponimik nomlar dostonida qayt etilishi barobarida qadimgi nomlar sifatida bugungi o‘quvchilarga boy tarixiy ma‘lumot beradi. Qolaversa, tarix va toponimika kabi fanlariga aloqador bo‘lgan dastlabki tarixiy va toponimik ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishga imkoniyat yaratiladi.

Ilmiy an‘analarga ko‘ra, etnonimlarga insonlarning alohida guruhini ifodalovchi xalq, urug‘, elat, millat nomlari kiritiladi. Dostonda uchraydigan etnonimlar: xalq nomlari (o‘zbek, o‘zbek), qalmoq, qozoq, xitoychalar) va urug‘-elat nomlari (qo‘ng‘irot eli, kas‘hal eli, Boysun-Qo‘ng‘irot elati) haqidagi ma‘lumotlar har o‘quvchining o‘zligini tanish, boshqa xalq-elatlar bilan yaxshi munosabatlarda bo‘lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Dostonda ko‘p tilga olingan etnonimlarning etimologiyasi haqida o‘qituvchi tomonidan sinf o‘quvchilariga biroz ilmiy tushunchalar berilsa, ayni muddao bo‘ladi. Masalan, “qalmoq” atamasi haqida so‘z yuritganda, mazkur atama mo‘g‘ulcha “xalimag” – aralash-quralash ma‘nosini bildiradi, degan mulohazani aytgani ma‘qul. Dostonda “qozoq” atamasi atigi bir marta uchraydi. “Alpomish: Qizi juvonlarni haydab o‘tarman / CHO‘ri



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qilib qozoqlarga sotarman”, deydi. Tarixdan ma’lumki qozoqlar o‘zbek va qalmoqlarga azaliy qo‘shni bo‘lgan. Shu boisdan mazkur epos dastlab O‘zbekistonda yaratilganligi va versiya-variant asosida boshqa hududlarga tarqalganligidan dalolat beradi.

Mazkur dostonni o‘rganishga bag‘ishlangan darsda o‘quvchi asar bilan tanishish va uni tahlil qilish orqali zoologiya faniga daxldor ilmiy tushunchalarni ham egallaydi. Masalan, doston matnida uchradigan hayvon va parrandalarning nomlari – zoonimlar (Boychibor – Alpomishning oti, Torlonbiy-Boychiborning enasi, Ko‘kdo‘nan-Ko‘kaldoshning oti, Olatoy-Kayqubot choponning oti, Boyqadam, Iziquti – Barchinoyning itlari, Semurg‘, Qiyg‘ir, Lochin, Xabarchi g‘oz, Qarchig‘ay, Suqsur, qarg‘a kabi)lar shular jumlasiga kiradi. Ushbu muloxazalarning tasdig‘ini “Alpomish” dostoni syujetining epik tasvirlarida ko‘plab kuzatish mumkin. Masalan: Alpomish yetti yil zindonda yotib, chohdan qutilib, yovlarni yengib o‘zi tug‘ilib o‘sgan makoniga qaytganida uni birinchi bo‘lib Boychiborning enasi – Torlon biya kutib oladi: “Torlon biya Boychiborning enasi Chiborning dovushini to‘qayda bildi, Bandi ketgan Chibor esiga keldi, hayvonzod kishnadi, yo‘llarga kirdi”.

Ijodkor xalqimiz orasida it azaldan vafodorlik, sadoqat timsoli tushunchalari bilan tasvirlanadi, biror xavf-xatarni oldindan seza oladigan, xushyor; ayni paytda egasi (xo‘jayini)ni zarur paytda himoya qiladigan qo‘riqchi sifatida qadrlanadi. “Alpomish”da Boyqadam, Iziquti nomlardagi itlar ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan jonivorlar – zoonimlar sanaladi.

Ular birinchilardan bo‘lib Alplarning enasi – shum niyatli Surxayl Maston kampirning xatti-harakatini payqaydi:

“Boylarning molin boj qip olayin,

Bebosh bo‘p ketmasin boyni ko‘rayin.

Bir oziroq chiqim solib kelayin,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Yomonini borib tergap kelayin” degan maqsadni eng avvalo boyagi itlari payqaydi, natijada, bu itlar “mazgili Chilbir”ga kelgan Surxayl Mastonga qarshi chiqadi, unga qaqshatqich zarbalar beradi:

Yaqinladi Boysarining uyiga,
Borayotgan shundayin ayyor edi,
Boysarida to‘qqiz ko‘ppak bor edi,
Ko‘ppaklari bu ayyorni ko‘radi,
Chopib kelib bul o‘rtaga oladi,
Har qaysi har yoqdan tortib taladi,
Ayiqday chinqirib kampir quladi,
Boyqadami emchagidan oladi,
Iziqquti qovuqqa chang soladi,
Ayiqday chinqirib kampir quladi,
To‘qqiz ko‘ppak o‘rtaga op taladi....

Mazkur dostonni o‘rganishga bag‘ishlangan darsda o‘quvchi asar bilan tanishishi va uni tahlil qilish orqali lingvistika (tilshunoslik) faniga aloqador dastlabki ilmiy tushunchalarni ham egallash imkoniyati bor. Bu o‘rinda birgina antroponimlar ya’ni shaxs nomlarini olaylik. Doston matni bo‘yicha olib borilgan va aniqlangan statistika ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, dostonda jami 149 ta atoqli ot bo‘lib, shundan 38 tasi shaxslar, yani kishi ismlari sanaladi. Mazkur antroponimlar bir vaqtda va bir hududda yashagan hamda turli davrlarda, xilma-xil hududda yashagan kishilar (epik qahramonlar)ning atoqli oti bo‘lib ular bir biridan farqlanadilar bunday farqlanishlarni quyidagi tasnifda kuzatamiz:

a) bir vaqda, bir hududda yashagan shaxs-epik qahramon nomlari (Alpomish, Qaldirg‘och, Barchin, Boysari);



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

b) bir vaqtda, ammo boshqa hududda yashagan epik qahramon nomlari (Tavka oyim va Qaldirg‘ochoyim, Boybo‘ri, Qorajon, Ko‘kaman, Ko‘kaldosh, Oygashqalar, Davonbiy, Boybo‘ri, Yodgor);

v) turli davrlarda va boshqa hududlarda yashagan shaxs otlari (Rustami Doston, Xo‘ja Xofiz Sheroziy, Sofi Ollayor, Hazrat Ali, Iskandar, Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li);

Lingvistikada, xususan, atamashunoslik tarixidan shu narsa ayonki, nomlar insonlarning orzu-umidi, eng yaxshi fazilatlari va fantaziyasi asosida qo‘yiladi. Lekin, shunga qaramasdan ko‘pgina nomlar xilma-xil sabablarga ko‘ra qayta tobulashtiriladi va natijada yangi-yangi efemik nomlar hosil qilinadi. Ayni hol insonlarning kundalik turmushidagi o‘zaro munosabatlarida va ayniqsa xalq dostonlarida ham kuzatiladi. “Alpomish dostoni”da ham evfemiklashtirilgan nomlar, masalan, xonim, xonto‘ram, polvon, biy bobomnin guli, to‘ram, kabi evfemik murojaatlar ham ancha faol qo‘llanilgan. Barchin tilidan aytilgan quyidagi murojaatlarga – she‘riy parchalarga e‘tibor qilamiz:

Xonim kelsa, senday qalmoq o‘lmaymi,

Xoling bilib to‘g‘ri yursang bo‘lmaymi,

Yoki:

Chakasda **shunqorim** bordir,

Elda zo‘ra borim bordir,

Qatorda **norim** bordir,

Chilla kirganda mast bo‘lgan

Xatanga boshinurgan,

Ne zo‘rlarning dodin bergan,

Qo‘ng‘irotda **qaysarim** bordir.

Ko‘ramizki, dastlabki she‘riy parchada beshikkerti qilingan epik qahramon (Barchin) o‘z yorining ismini aytmasdan tobulashtirish orqali “xonim” evfemasini



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Alpomish nomi o‘rnida qo‘llagan. Keyingi misralarda Barchin o‘z yorini ta’rif tavsif qilish uchun yana evfemik asosga tayanadi. “Yorim bor” degan tushunchani mumkin qadar yumshatib, ayni vaqtda ulug‘lab (elda zo‘raborim), ko‘klarga ko‘tarib va maqtab (ne zo‘rlarning dodini bergan) ifoda etganligini kuzatamiz. Bu tarzda evfemik murojaatlarning ijtimoiy– ma’naviy asoslari borki, ularning bir qismi milliy qadryatlarimizning mazmun-mohiyatiga borib taqaladi. Sharq ayollari o‘rtasida, xususan, millatimiz ma’naviyatida ayol kishi turmush o‘rtog‘ining nomini aytmalik, uning o‘rniga biror evfemik murojaatdan foydalanish rusmi-odati qat’iy muhrlanib qolgan. Xalqimizning yuksak ma’naviyatini va ma’naviy merosini ko‘z-ko‘z qiladigan “Alpomish” dostonida ham Barchinoy nutqida “Chokasta shunqorim”, “elda zo‘raborim”, “qatordagi norim”, “qo‘ng‘irotda qaysarim” kabi evfemik birikmalar bo‘lajak yori (Alpomish)ga nisbatan qo‘llangan. Umuman, dostonda er tushunchasini ifodalovchi 20 tadan ortiq evfemalar uchraydiki, ularning ichida begim, to‘ram so‘zlari ixcham, go‘zal va ayni vaqtda damda adabiy tilga mos, hamma uchun tushunarli tarzda qo‘llangan. Dostonning quyidagi misralarida Barchinoy onasi Alpomish nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmaganligi va muayyan tarzda tobulashtirganini ko‘ramiz:

Qozonda qaynayotgan shirboz go‘sh t emas,

To‘rda o‘tirgan qizning boshi bo‘sh emas,

Qizim domat bobosining uliga

Mol bergani Boysun Qo‘ng‘irot elida...

Uchar qushdan o‘tar bul mingan oti,

Mingni kesar, qo‘lda kesar po‘lati...

Ko‘rsa dushmanlarning qolmas toqati,

Asli o‘zi qo‘ng‘irot elining bekozdi.

Shul qizimning bul atashkan domati,

Shul bo‘ladi bir yurtning vallomati



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bu she'riy parchalarning dastlabki ikki misrasidagi boshi bo'sh birikmasi mazmuniga ko'ra erga tegmagan iborasi bilan sinonim hisoblanadi. Erga tegmagan ifodasida "qo'pollik" pragmatik semasi mavjud bo'lib, boshi bo'sh iborasining evfemik vosita sifatida qo'llanishida millatimizga xos va qadriyatimizga mos andisha, uyatchanlik kabi xislatlar ko'zga tashlangan. "Alpomish"da ham bu iboradan Barchinga kelgan sovchilarga javob berishda epik qahramon juda o'rinli foydalana olishgan. Masalan, "O'zbeklarning yaxshi qizi bo'lsa, boshi bo'shmi, deyin, avval so'rayin" kabi murojaat nutqidan shuni anglash mumkinki, sovchilar avval sovchi bo'lib borilayotgan qizning boshi bo'shmi? degan niyati ifodalangan. Bu o'rinda dostonni o'rganishga kirishgan har bir o'quvchi uchun iboraning ma'nosi hech bir qiyinchiliksiz tushuniladi va bunga javoban boshi bo'sh emas, ya'ni, Barchin Boysun – Qo'ng'iro't elida domat bobosining o'g'li Alpomishga unashtirilgan, degan asosiy hukm – xulosa bilan tanishadi.

Ko'rinadiki, mazkur dostonni o'rganishga bag'ishlangan darsda o'quvchi asar bilan tanishish va uni tahlil qilish orqali tarix, toponimika, etnografiya, zoologiya, lingvistika, madaniyatshunoslik, qadriyatshunoslik kabi fanlarga aloqador bo'lgan dastlabki ilmiy tushunchalar beriladi. Demak, o'quvchilarning ilmiy taffakkurini faqat adabiyot darsliklaridagi nazariy ma'lumotlar bilan birga, fanlararo bog'lanish orqali ham shakllantirish va ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirish mumkin. Bularning hammasi o'z navbatida ularning zamon talablariga javob beradigan, yuksak ma'naviyatli inson sifatida tarbiyalanishiga mustahkam poydevor bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, "Alpomish" dostoni o'zbek xalqining boy tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlari va badiiy-estetik qarashlarini mujassam etgan bebaho adabiy meros hisoblanadi. Mazkur dostonni ta'lim jarayonida fanlararo yondashuv asosida o'rganish o'quvchilarning faqat adabiy bilimlarini boyitibgina qolmay, balki ularning tarix, toponimika, etnografiya, zoologiya,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

tilshunoslik va madaniyatshunoslikka oid dastlabki ilmiy tushunchalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Dostonda uchraydigan joy nomlari — toponimlar o‘quvchilarga xalqimizning qadimiy yashash hududlari, tarixiy-geografik tasavvurlari va madaniy aloqalari haqida ma’lumot beradi. Etnonimlar orqali esa o‘quvchilar xalq, elat, urug‘ va millat tushunchalarini anglaydi, turli xalqlar o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar va qo‘shnichilik aloqalari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Bu esa ularning milliy o‘zligini anglash, boshqa xalqlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va tarixiy xotirani qadrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, doston matnida uchraydigan zoonimlar o‘quvchilarning tabiat, hayvonot olami va xalqona tasavvurlar haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Boychibor, Torlonbiya, Boyqadam, Iziquti kabi obrazlar orqali o‘quvchilar xalq og‘zaki ijodida hayvonlarga xos sadoqat, vafodorlik, hushyorlik va jasorat kabi ramziy ma’nolarni anglaydi. Antroponimlar esa epik qahramonlarning xarakteri, ijtimoiy mavqeyi, xalqning nom qo‘yish an’analari va milliy tafakkur xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Dostondagi evfemik birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Alpomish” xalqimizning nutq madaniyati, odob-axloq me’yorlari, oilaviy munosabatlari va milliy qadriyatlarini chuqur aks ettiradi. Xususan, Barchinoy nutqida uchraydigan evfemik murojaatlar o‘zbek xalqiga xos andisha, hurmat, ibo va ma’naviy noziklikni ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bunday birliklarni o‘rganish o‘quvchilarda tilga, milliy madaniyatga va xalqona tafakkurga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Alpomish” dostonini fanlararo bog‘liqlik asosida o‘rganish adabiy ta’lim samaradorligini oshiradi. Chunki bunday yondashuv o‘quvchilarda matnni chuqur anglash, obraz va tushunchalar o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘ra bilish, mustaqil fikrlash, ilmiy xulosa chiqarish hamda milliy



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

merosga hurmat bilan qarash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois “Alpomish” dostoni adabiyot darslarida nafaqat badiiy asar sifatida, balki keng ilmiy-ma’rifiy va tarbiyaviy imkoniyatlarga ega manba sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, “Alpomish” dostonini fanlararo yondashuv asosida o‘qitish yosh avlodning ilmiy tafakkurini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirish va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish, ularni turli fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda o‘rgatish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydananilgan adabiyotlar:

1. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
2. Alpomish. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarif va To‘ra Mirzayev. Toshkent: Fan, 1999.
3. Mirzayev, To‘ra. O‘zbek xalq dostonlari poetikasi. Toshkent: Fan, 2004.
4. Zarifov, Hodi. O‘zbek folklori va xalq dostonlari. Toshkent: Fan, 1975.
5. Safarov, Oxunjon. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: Musiqa, 2010.
6. Imomov, Komiljon, To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov va Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
7. Jo‘rayev, Mamatqul. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asoslari. Toshkent: Fan, 2008.
8. Qosimov, Begali, va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
9. Begmatov, Erkin. O‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016.